

Huquqiy Tarbiyaning Yoshlarni Harbiy - Vatanparvarlik Tuyg‘Usini Shakllantirishdagi O‘rni

Xaydarov Muzaffar Ormonovich¹ Tilloev Ulug Umarovich²

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Vatanini, xalqini va oilasini sevishga o‘rgatish, vatanparvar bobolarimizning bizgacha qoldirgan buyuk merosini o‘rganish va ularga munosib voris bo‘lish haqida so‘z yuritiladi.

Keywords: vatanparvarlik, vatanparvar shaxs tushunchasi, harbiy vatanparvarlik, huquqiy ta’lim, huquqiy madaniyat.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi siyosatida yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish, ularning islohotlardagi faol ishtirokini ta’minlash orqali ularning demokratik yangilanish jarayonlarining ishtirokchisi sifatidagi roli yanada ortdi. Bu quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangi asrga kelib, yoshlarga munosabat masalasida dunyo taraqqiyoti uchun umumiy bo‘lgan qonuniyatning mavjudligi ayon bo‘ldi, ya’ni, yoshlar endi nisbatan ustuvor ahamiyatga ega shaxsdan jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan, uni amalga oshiradigan yetakchi kuchga aylanmoqda;
- yoshlarning intellektual qobiliyatlari, kasbiy malakasi, ma’nan va ruhan barkamollik kabi ijtimoiy sifatleri butun jamiyatning rivojlanish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bunday tendensiyalar yoshlarning alohida ijtimoiy demografik qatlam sifatida siyosatning faol subyektiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi Bugun yoshlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va mavqeini yanada kjsaltirish o‘ta muhim masaladir». Shu munosabat bilan hozirgi davrda o‘sib kelayotgan avlodning muammolarini o‘rganish, tahlil qilish va shu asosda ularning yechimini topish ehtiyoji tobora ortib bormoqda.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ham ahamiyati beqiyosdir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Fuqaro mudofaasi hamda harbiy bilim asoslarini bo‘yicha dastlabki nazariy bilimlarni berish va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish;
2. Yoshlarni milliy mustaqillik, O‘zbekiston Respublikasining davlat qurilishi hamda konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriluvchi tahdidlarning oldini olishga tayyorlash; g‘oyaviy onglilikni tarbiyalash asosida, ularda terrorizm va diniy ekstremistik g‘oyalarga qarshi nafrat tuyg‘usini tarbiyalash;
3. Vatan himoyasini ta’minlash borasidagi harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
4. Favqulotda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko‘ra olish, shuningdek, qurolli hurujlardan himoyalanih ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar.

¹ mayor, Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi, O‘zbekiston.



Mustaqillik davlat siyosatining xarakteri, maqsad va vazifalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos milliy yoshlar siyosatini belgilab olish va amalga oshirish uchun mustahkam zamin tug'diradi. Shu nuqtai-nazardan yondashganda, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi davlatning yoshlarga doir siyosatida muhim bosqich hisoblanib, siyosatda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratish uchun keng imkoniyatlaoni ochib beoli Yoshlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeining tobora ortib borishi mamlakatimiz uchun xos xususiyatdir. Bugun mustaqillik tufayli yangicha dunyoqarash, demokratik tafakkurga ega bo'lgan yoshlarning yangi avlodi shakllanmoqsa. Ular respublikamiz kelajagining mustahkam tayanchi bo'la olishi shubhasizdir. Zero, yoshlarning huquqlari va faoliyat kafolatlari bosh qomusimizda belgilab qo'yilgan.

Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993 yil mart oyida e'lon qilingan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi"da qayd etilganidek: "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir.

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Harbiy vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoiylilik namunalari ko'rsatishga qodir bo'lgan yoshlarga xos fazilatdir. Vatanga, xalqqa bo'lgan xurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyaga ta'sir qilib, ularni ma'suliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi. Demak, aytish mumkinki, vatanparvarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilatdir. Harbiy vatanparvarlik ayni paytda barchaning o'z ishiga mas'uliyat bilan qarashi, vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir. Vatanparvarlik bir so'z bilan aytilganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish: ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir; vatanparvarlik - xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, xalqimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan, yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, axloqiy-estetik jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishlarining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqishdan iborat. Vatanparvarlik yetuk ma'naviyatdir. Jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ma'naviyatining o'rni va ahamiyati juda ulkandir. Jamiyatda yashovchi har bir inson o'z e'tiqodi, maqsadi va manfaatlarini bilan Vatanga hizmat qilishi uning buyuk kelajagi uchun intilishi lozim. Shunday taraqqiyotning muhim omillaridan biri bu insonlardagi Vatanparvarlik tuyg'usidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 dekabrda F-5614 farmoyishi.
2. Abu nasr Farobiy. Baxt saodatga erishuv haqida. Majmu ar-rasoil al-hukamo. O'z FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi qo'lyozmadan. Jahon falsafasi. Jahon falsafasi Toshkent. Sharq - 2004y.
3. Д.Р. Арашова, М.Н. Исмоилова. МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗАХ// Теория и практика современной науки. №12(30). 2017. С. 39-42.



4. Исмоилова М.Н.,Тураева Г.Х. (2021) Методы обучения на основе мобильных технологий для изложения новых учебных материалов // Вестник Науки и образования. Стр. – 65-67.
5. *Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Численное решение смешанной задачи, поставленное на векторном волновом уравнении в области с углом//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(79), 2020. С. 22-25.*
6. Ш Максудов, М.Н Исмоилова. . РОЛЬ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СПОРТА В РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ// Теория и практика современной науки. №1(31). 2018. С 317-319.
7. М.Н Исмоилова, З.Ш Султонова.Требования к методике обучения// Ученый XXI века. № 3-2 (38). 2018 . С 84-88.
8. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях // ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38-41.
9. Имомова Ш. М., Норова Ф. Ф. РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(103), 2022. С. 30-32.
10. Imomova Shafolat Mahmudovna, Qobilov Komil Hamidovich. Oliy Ta'lim Muassasalarida Masofadan OQitish Jarayonini Takomillashtirish// Miasto Przyszłości, Vol. 31 (2023), С.312-314.

